

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 1941,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Ijara xizmatlarining o'sish sur'ati 142,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2359,2 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-dekabir oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1941,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (32,6 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozirgi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi ro'l o'yndaydi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2018 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ijara xizmatlari (42,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (37,6 %), moliyaviy xizmatlar (34,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (16,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,9 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

## 2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (32,6 %), transport xizmatlari (19,0 %), moliyaviy xizmatlar (16,0 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,9 %) ni tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlari**

	Hajmi mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hi- sodida
<b>Jami xizmatlar</b>	<b>1941,1</b>	<b>109,7</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan: xizmat turlari do'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	154,2	107,9	7,9
moliyaviy xizmatlari	311,1	134,8	16,0
transport xizmatlari	367,5	102,7	19,0
shu jumladan			
avtotransport xizmatlari	353,5	104,6	18,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	49,7	104,9	2,6
savdo xizmatlari	632,9	102,1	32,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	58,3	103,1	3,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	89,1	137,6	4,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	27,8	116,9	1,4
ijara xizmatlari	46,9	142,4	2,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni, ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	59,9	103,4	3,1
shaxsiy xizmatlar	56,0	103,5	2,9
me'morchilik muxandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,8	106,3	1,1
boshqa xizmatlar	65,9	104,9	3,4


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida tuman, shaharlar bo'yicha  
bozor xizmatlari hajmi**

	Hajmi mlrd. so`m	O'sish sur`ati, % hisobida	Umumiy hajmga nisbatan % hisodida
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1941,1</b>	<b>109,7</b>	<b>100</b>
shaharlar:			
Guliston	949,1	112,9	48,9
Shirin	26,0	107,2	1,3
Yangiyer	142,7	105,6	7,4
tumanlar:			
Oqoltin	51,7	109,4	2,7
Boyovut	86,0	104,8	4,4
Sayxunobod	116,5	118,0	6,0
Guliston	75,1	104,9	3,9
Sardoba	67,6	96,3	3,5
Mirzaobod	91,8	106,4	4,7
Sirdaryo	253,1	106,3	13,0
Xovos	81,5	108,0	4,2

Hududlar o'rtasida Guliston shahri 949,1 mlrd.so'm bilan etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Guliston shahri bo'yicha 112,9 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (112,5 mlrd. so'm), transport xizmatlari (22,1 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (103,5 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (13,2 mlrd. so'm) hamda ta'lim xizmatlari (27,3 mlrd. so'm) ga oshganligi kuzatildi.


### 2018 yil yanvar-dekabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'limgan holda oshishi shaxsiy xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ushbu xizmat turining hajmi 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,6 mlrd. so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlarning eng katta ulushini 32,6 foiz bilan savdo xizmatlari tashkil etmoqda .

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlari ulusi (%)**




Savdo xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Guliston (25,1 %), Sirdaryo (16,9 %) va Sayxunobod (12,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi

Eng past ulushi SHirin shahar (3,5%), Oqoltin (1,0 %), Guliston (4,9 %) va Sardoba (4,8 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiylaj hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 632,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylaj hajmidagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %**




Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 68,6 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiylaj savdo xizmatlarining 5,4 % ni tashkil qiladi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlarining hajmi 367,5 mlrd. so'mni tashkil etib 102,7 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 19,0 foizni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Guliston shahar (29,7 %), Sirdaryo tumani (19,0 %), Yangiyer shahar (14,3 %) hamda eng past ulushi SHirin shahar (1,7%) hissasiga to'g'ri keldi

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2359,2 ming. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi

### **2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida - 10712,5 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Sayxunobod tumanida - 115,9 % kuzatildi.